



N.DAVQARAEVNING “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASI XALQ OG’ZAKI ADABIYOTI NAMUNASI

Esbergenova Svetlana Xo’jakmetovna¹

¹ O’zbekiston Respublikasi Imlar akademiyasi Qoraqalpoqston bo’limi gumanitar ilmlar izlanish institute Etnografiya bo’limining doktoranti ,tarix ilmlarining kandidati

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5815202>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-dekabr 2021

Ma’qullandi: 25- dekabr 2021

Chop etildi: 30- dekabr 2021

KALIT SO’ZLAR

Adabiyot

,tarix,folklor,dramaturgiya,

doston,namuna,musiqqa,mo

tiv,idea

ANNOTATSIYA

Maqolada 1942-yil taniqli ilmshunos N.Davqaraev tarafidan yozilgan qoraqalpoqston xalqining dostoni “Alpomish” dostoni asosida yozilgan “Alpomish” musiqali dramasi haqida so’z etiladi.

Qoraqalpoq adabiyotida dramaturgiya sohasining rivojlanishida tug’ishgan xalqlar ahamiyati juda katta ham sezilarlik darajada bo’ldi.Qoraqalpoq dramaturgiyasining yirik namoyondalari Qosim Avezov,Abdiraman Utepov,Seyfulg’abit Majitovlar shu tajribadan unumli foydalanib qoraqalpoq dramaturgiyasida “Tilak yo’lida”,“Tengini topgan qiz”,“Shubxa”,Bog’dagul” dramalari bilan kirib keldi,rivojlantirishni ham yanada yaqshiladi. Shuning bilan birga, A. Begimov, M.Daribaevlar o’z hissasini qo’shdi.1942-yili bo’lsa taniqli ilmshunosi N.Davqaraev tarafidan qoraqalpoq xalqining dostoni “Alpomish”dostoni asosida yozilgan “Alpomish” musiqali dramasi ning teatrda qo’yilishi katta yangilik bo’ldi.Bu qoraqalpoq xalqining madaniy tarixida unitilmas iz qoldirdi,sababi “Alpomish” musiqali dramasi xalq og’zaki ijodi,ya’ni bu Buyuk Vatan urushi yillarida

mehnatkashlarni ruhlantirish va xalqlar do’stligini yanada yaqshilashda o’zining katta hissasini qo’shdi.1961-yil musiqali drama qayta ishga tushdi.

N.Davqaraev tarafidan “Alpomish” musiqali dramasi urushtan oldingi yillarda yozila boshlagan,biroq teatr sahnasida qo’yilmadi.

Pyesadan parcha 1940-yili rus tilde bosmadan chiqdi,” Возрожденный народ”

To’plamida birinchi marta bosmadan chiqdi.1958-yili bosilgan N.Davqaraevning ko’rkam adabiyot to’plami “Alpomish” pyesasining umumiy teksti joriyalandi.

So’nngi marta 1970-yil N.Davqaraevning asarlari toplami to’liq holda yig’ilib birinchi to’plamida umumiy qilib bosmadan chiqdi.N.Davqaraev “Alpomish”

Motivida yozilgan musiqalik dramasi ustida ko’p mehnat qildi.U “Alpomish” dramasi



dostonning ideyalik, ko'rkamlik o'zgachalıkları hisobga olinib ,dostonni takrorlamasdan uning ideyalik manosini urug'larni biriktirish masalasi eng oliy masala qilib olinadi. Musiqali drama Boysari xonning qudasining azobiga chiday olmay ko'chichi konfliktidan boshlanadi. Bosh qahramonlar harakati shu konfliktning atrofida uzluksiz harakatta rivojlanadi. Bu yozuvchining dramalik asari syujeti asosida konflikt bilan qahramon karakterlarining birligining ahamiyatini aniq turda ko'rsatib beradi. Alpomishdan tarqagan urug'larni birlashtirish ,uning otasi bilan onasini Taychixonning azobidan qutqarish karakterlari ,o'zining sevgan yori Barchinoyni izlab borishi bilan tasvirlanuvchi sahnalari yurtni himoya qilishdagi obrazi realistlik bilan tasvirlangan. Alpomish dramasi 4 akt ,8 kartinadan iborat. Drama ko'chayotgan Boysarining yurtining ahvoli yani Boysarining zug'umlariga uchragan xalqning qarshiligi bilan boshlanadi. Avtor shunday darajada voqeani tasirchan tasvirlydi bu dostonda yo'q, sababi musiqalik dramada Boysarining elidan ko'chichi ,qarshiliklari ,keng tarzda tasvirlanadi va qiz- yigitlar o'yini "Ayqulash "o'rin egallagan, avtorning

Chevarlik bilan folklorlik asarini folklore bilan boyitishini ko'ramiz.

Masalan:

Yigitlar;-Ayqulash ay qulash

Oyga qarab quloq och

Qizlar :-Oydan boshqa nima kerak?

Yigitlar:-Oydan ortiq qiz kerak.

Alpomish dostonida Baysarining ko'shishidan Alpomish bexabar bo'ladi,u

musiqalik dramada Gulbarchinning ro'moli belgi qilib beradi. Asosiysi dramaturg o'zining yozuvchilik mohirligini asosida "Alpomish" obrazini yaratdi, o'zining hayolidagi yani ideasidagi "Alpomish" monologini yaratdi.

Masalan:

Boychuvarga minaman,

Quyruq sochin o'raman

Belimga kamar bog'layman

Nomard bo'lsam onadan

O'g'il bo'lib nega tug'ildim.

Musiqali dramada Toychixonning yurtidagi vazoyatlar o'z o'rnini egallagan, yani dostonda yo'q Ayim obrazi beriladi. Ayim Toychixonning qizi bo'lib unga Qorajon botir oshig' bo'ladi ,qiz unga qarshilik bildiradi. Dostondagi voqealar saqanishi bilan birga yangidan epizodlar ko'p qo'shilgan. Masalan: Alpomishdagi mast holidagi o'ltirilishi kerakligi haqida kelishuv, Toychixon yurtidagi chobarlardan keying bazmlar , uning taxtdan tushishi Alpomish bilan Qorajonning aloqasi so'z etiladi. N. Davqaraev musiqali dramasida yuqorida keltirib o'tkanimizday xalq og'zaki adabiyoti namunalaridan unumli foydalanilgan. Masalan qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan namunalari bo'lgan kelin kelgan vaqtda aytiladigan kelin salom o'rin egallagan. Xalq tili boyligidan ,xalq maqollari so'zlarda chevarlik bilan qo'llanilgan. Asar oxirida Alpomish ota-onasi xalqi bilan ,kelin kelib qoraqalpoq xalqining dasturlaridan biri suyinchi olish ,kelin salom bo'lib topiladi

va tamomlanadi.



Xulosa qilib aytganda, N. Davqaraev bu musiqali dramali asari asosida tarixiy asarlardan olinib, adabiyot bilan folklorning

bir-biri bilan bog'liqliligini belgilab berish bilan birga qoraqalpoq dramaturgiyasida o'chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Maqsetov. Folklor va adabiyot. Qoraqalpoqston. 1975-yil
2. N. Davqaraev. Asarlarning to'liq to'plami. Qoraqalpoqston. 1975-yil
3. Ziyonet